O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.512.133’373.43:796

Aziza MURATBAEVA,
Magistrant, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: a.muratbaeva@nuu.uz

O‘zbekiston Milliy universiteti, dotsent X.Sarimsokov taqrizi asosida

LINGUISTIC APPROACHES TO THE CONCEPT OF DISCOURSE

Annotation

This article examines linguistic approaches to the concept of discourse in world, Russian, and Uzbek linguistics. Particular attention is paid to the structural, functional, situational and cognitive approaches to discourse. The article analyzes the views of D. Schiffrin, Z.S. Harris, T.A. van Dijk, Yu.S. Stepanov, Sh. Safarov, A.A. Kibrik and P.B. Parshin on the nature and interpretation of discourse. The study also considers the relationship between discourse and text, as well as the role of form, meaning, context and communicative action in the interpretation of discourse. Based on the approaches discussed, discourse is viewed as a complex linguistic phenomenon formed through the interaction of form, meaning and communicative action.

Key words: Discourse, discourse analysis, structural approach, functional approach, situational approach, cognitive approach, text, communication.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЮ ДИСКУРСА

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвистические подходы к понятию дискурса в мировой, русской и узбекской лингвистике. Особое внимание уделяется структурному, функциональному, ситуативному и когнитивному подходам к изучению дискурса. Анализируются взгляды Д. Шиффрин, З.С. Харриса, Т.А. ван Дейка, Ю.С. Степанова, Ш. Сафарова, А.А. Кибрика и П.Б. Паршина на природу и интерпретацию дискурса. Также рассматривается соотношение дискурса и текста, а также роль формы, значения, контекста и коммуникативного действия в интерпретации дискурса. На основе рассмотренных подходов дискурс определяется как сложное лингвистическое явление, формирующееся во взаимодействии формы, значения и коммуникативного действия.

Ключевые слова: Дискурс, дискурсивный анализ, структурный подход, функциональный подход, ситуативный подход, когнитивный подход, текст, коммуникация.

DISKURS TUSHUNCHASIGA LINGVISTIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahon, rus va o‘zbek tilshunosligida diskurs tushunchasiga nisbatan shakllangan lingvistik yondashuvlar yoritiladi. Diskursni o‘rganishdagi strukturaviy, funksional, situativ va kognitiv yondashuvlarga alohida e’tibor qaratiladi. D. Schiffrin, Z.S. Harris, T.A. van Dijk, Yu.S. Stepanov, Sh. Safarov, A.A. Kibrik va P.B. Parshinning diskursning mohiyati va talqiniga oid qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, diskurs va matn o‘rtasidagi munosabat, diskursni talqin qilishda shakl, ma’no, kontekst va kommunikativ harakatning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan yondashuvlarga asoslangan holda diskurs shakl, ma’no va kommunikativ harakatning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab lingvistik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Diskurs, diskurs tahlili, strukturaviy yondashuv, funksional yondashuv, situativ yondashuv, kognitiv yondashuv, matn, kommunikatsiya.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda har bir sohaga yuksak e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy tilshunoslikda tilning faqatgina leksik va grammatik xususiyatlariga qiziqish cheklanib qolmasdan, ularning ijtimoiy, madaniy, kommunikativ va kognitiv jihatlarini o‘rganishga ham qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu ma’noda tilshunoslikning diskurs masalasidagi taraqqiyot va islohotlarni ham aytib o‘tsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Diskurs masalasi tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Diskurs tushunchasi nafaqat tilning grammatik va leksik xususiyatlarini, balki uning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jihatlarini ham o‘zida mujassam etadi. Diskurs tushunchasi XX asrning 1960-1970-yillarida antropologiya, sotsiologiya, tilshunoslik va kognitiv psixologiya kabi bir qator fanlarning birlashmasida shakllangan bo‘lib, keyinchalik fanlararo yo‘nalish sifatida rivojlangan[4]. “ISI Web of Knowledge” ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yilda sarlavhasi yoki mavzusida “diskurs” so‘zi qatnashgan 43379 ta maqola nashr etilgan bo‘lib, ulardan 3210 tasi bevosita diskurs tahliliga bag‘ishlangan edi[4].

Shunga qaramasdan, diskurs tushunchasining ma’nosi va mazmuni, chegaralari haqida tilshunoslikda yagona qarash mavjud emas. Turli olimlar o‘zlarining nazariyalari va tadqiqotlarga tayangan holda diskursni turlicha fikrlar bildiradi. Bir guruh tadqiqotchilar diskursni matn, nutq va kommunikativ jarayon bilan bog‘lasa, boshqalari uni ijtimoiy faoliyatning muayyan shakli sifatida talqin qiladi. Bu esa diskursning ko‘p qirrali va murakkab hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli uni faqat bitta lingvistik hodisa sifatida izohlash yetarli emas. Diskursni izohlash uchun uning strukturaviy, funksional, kommunikativ, konseptual va kognitiv jihatlarini hisobga olish zarur[4]. O‘quvchida tabiiy ravishda savol tug‘iladi. Xo‘sh, unda diskurs o‘zi nima?

Diskurs tushunchasini anglashda uning etimologiyasiga e’tibor qaratish muhim o‘rin egallaydi. Etymonline ma’lumotlariga ko‘ra, ingliz tilidagi discourse so‘zi XIV asr oxirida fransuzcha “discours” va lotincha

“discursus” so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab “harakatlanish” “u yoqdan bu yoqqa yugurish” ma’nolarini anglatgan. Lekin keyinchalik uning mazmun doirasi kengayib, “suhbat”, “mulohaza yuritish”, va “fikr almashish” ma’nolarini anglata boshlagan. Ingliz tilida u fikrni og‘zaki va yozma tarzda ifodalash ma’nolarida qo‘llanilgan[1]. Demak, diskursning etimologik rivoji hozirgi ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir.

Diskurs tushunchasi turlicha talqinlarini tizimlashtirishda Deborah Schiffrinning o‘rni katta ahamiyatga ega. Schiffrin diskursni o‘rganishda ikki asosiy paradigmani ko‘rsatib beradi. Bular formalistik yoki strukturaviy va funksionalistik yondashuvlardir. Strukturaviy yondashuv diskursning ichki tuzilmasi va kuzatiladigan lingvistik hodisalarga e’tibor bersa, funksional yondashuv tilning kommunikativ xizmati va bajaradigan vazifalarini o‘z ichiga oladi[3]. Schiffrin diskurs tushunchasiga uch xil ta’rif beradi.

Diskurs gapdan yuqori darajadagi til sifatida;

Diskurs tilning qo‘llanilishi sifatida;

Diskurs strukturaviy va funksional jihatlarning birligi sifatida.

Mazkur tasnif diskursni faqat formal birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki kommunikativ faoliyat bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida o‘rganish imkoniyatini beradi[3].

Strukturaviy yondashuv haqida gap ketganda amerikalik lingvist Zellig Harris tadqiqotlarini alohida sanab o‘tish lozim. U tilni alohida gaplardan tashqarida tahlil qilish uslubini o‘ylab topgan. An’anaviy tilshunoslik asosan alohida, ajratilgan holda gaplarni tahlil qilgan bo‘lsa, Harris butun matnlarni va suhbatlarni va ularni tarkibidagi til birliklarini tizimli ravishda o‘rgangan. Unga ko‘ra, “til alohida so‘zlar yoki gaplarda emas, balki bog‘langan diskursda namoyon bo‘ladi bir komponentli birlikdan (utterance) tortib o‘n jildlik asargacha, monologdan tortib Ittifoq maydonidagi (Union Square) bahsgacha”[2]. Bunday yondashuvda lingvistik birliklar va formal munosabatlarga asosiy e’tibor berilgan bo’lib, so‘zlovchining shaxsiyati va ijtimoiy holati va pragmatik talqinlar kabi omillar chetda qoldirilgan. Lekin, diskursning mazmun yaxlitligini aniqlashda bu yetarli emas. Bu masala o‘zaro bog‘liqlik va izchillik masalasida yaqqol ko‘zga tushadi. O‘zaro bog‘liqlik ko‘pincha matn ichidagi grammatik va semantik bog‘liqlikni anglatsa, izchillik mazmunning tinglovchining oldingi bilimlari va kontekst ichida izchil talqiniga bog‘liq bo‘ladi[3].

Diskurs tushunchasini o‘zining qarashlari bilan yanada kengroq yoritib bergan tilshunos bu gollandiyalik T. van Deyk. Uning fikriga ko‘ra diskursni murakkab, ko‘p qatlamli hodisa hisoblanadi va biz uni uch o‘lchamda ko‘rib chiqishimiz kerak. Ular shakl, ma’no va harakat hisoblanadi[4]. Bunda shakl diskursning qanday ifodalanishini anglatadi. Bunga kuzatilishi mumkin bo‘lgan til birliklari va belgilari bo‘lgan tovushlar, so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar kiradi. Ma’no diskurs orqali nima ifodalanishini anglatadi. Van Dijk ma’noni local va global darajalarga ajratadi. Local ma’no diskursning muayyan qismini ifodalasa, global ma’no diskursning umumiy mazmunini anglatadi[4]. Harakat esa insonlarning til orqali nima qilayotganini anglatadi. Biror kishi diskurs yaratganda, u faqat so‘zlarni tartib bilan aytmaydi, balki ijtimoiy harakatni amalga oshiradi ya’ni ma’lumot beradi, ishontiradi, iltimos qiladi yoki va’da beradi[4]. Bizning fikrimizcha, aynan ushbu jihat diskursni oddiy lingvistik birliklar yig‘indisidan farqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki diskursning shakliy tashkil topishi uning mazmunidan, mazmun esa kommunikativ vazifasidan ajralgan holda to‘liq talqin qilinishi mumkin emas.

Rus tilshunosligida diskurs mazmunini kengroq yoritishda hissa qo‘shgan olim deganda ko‘z oldimizga birinchilardan bo‘lib Y.S. Stepanov keladi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. U “diskursni til ichidagi til” deb ta’riflaydi. Diskurs o‘ziga xos grammatika va lug‘at tarkibiga ega bo‘lgan oddiy til kabi bo‘lmaydi. U matnlar orqali mavjud bo‘ladi va amalga oshadi[7]. Bu fikr Schiffrinning struktura va funksiyani birlashtiruvchi uchinchi ta’rifini yanada kengaytirib, diskursning konseptual va kognitiv jihatlarini ham nazariy tahlil doirasiga kiritadi[3]. Shuningdek, Stepanovning fikricha, har bir diskurs o‘ziga xos ma’no, dunyoqarash va voqelikni talqin qilish tizimiga ega bo‘ladi[7]. Shuning uchun, diskursni faqat lingvistik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki konseptual va madaniy tizim sifatida ham talqin qilish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat diskursning strukturaviy va funksional, balki semantik va kognitiv xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi[7].

O‘zbek tilshunosligida ham diskurs masalasi chetda qolgani yo‘q. Diskursni matn bilan bog‘lagan holda tahlil qilgan olimlarimizdan biri bu Sh. Safarov hisoblanadi. Uning yondashuvi diskurs va uning mohiyatini anglashda katta ahamiyatga ega. U matn va diskurs masalasi o‘rtasidagi munosabatni kengroq yoritib, ularni og‘zaki va yozma shaklda farqlashni yetarli emasligi ta’kidlaydi[6]. Uning fikricha, diskurs ko‘lami jihatdan matnga qaraganda kattaroq hodisa bo‘lib, insonning ongli faoliyatining muayyan turini ifodalaydi, matn esa uning shakllaridan biridir[6]. Shunday qilib, matn va diskursni bir biridan mutlaqo ajralgan holda yoki qarama qarshi hodisalar sifatida emas, balki qamrovi jihatdan farqlanuvchi o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida qaraydi. Demak, Safarovning fikriga ko‘ra, biz matnni diskursdan ajratib emas, uni diskursning bir bo‘lagi sifatida ko‘rishimiz lozim[6]. Bizning fikrimizcha, Safarovning mazkur yondashuvi diskurs va matn munosabatlarini izohlashda muhim nazariy asos yaratadi. Chunki matn diskursning muayyan shakliy ko‘rinishini tashkil etishi mumkin, biroq diskurs tushunchasi matnning o‘zidan tashqari kommunikativ vaziyat, inson faoliyati va kontekst kabi omillarni ham qamrab oladi.

Diskurs tushunchasini yoritishda zamonaviy tilshunoslikda A.A. Kibrik va P.B. Parshin to‘rtta asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatadilar[5]. Bular formal, funksional, situativ va kognitiv yondashuvlar hisoblanadi[5]. Formal yondashuv diskursni uning strukturaviy tuzilishi va alohida gaplarni va yirik birliklarni bog‘lovchi munosabatlar asosida o‘rganadi[5]. Funksional yondashuv esa tilning amaliy qo‘llanilishiga asoslanib, diskursning kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifalarni tahlil qiladi[5]. Situativ yondashuv diskursni muloqot yuzaga keladigan ijtimoiy, madaniy va psixologik sharoitlar bilan bog‘laydi[5]. Kognitiv yondashuv esa bilim, axborot uzatish va diskursda ifodalangan fikrlar o‘rtasidagi aloqalarga e’tibor beradi[5]. Ko‘rinib turibdiki, Kibrik va Parshin tomonidan ajratilgan formal va funksional yondashuvlar Schiffrin tomonidan ko‘rsatilgan strukturaviy va funksional paradigmalar bilan ma’lum darajada uyg‘unlashadi[3; 5]. Situativ va kognitiv yondashuvlar esa diskursni faqat uning ichki tuzilishi bilan cheklab qolmasdan, kommunikativ vaziyat, inson bilimi va kontekst bilan bog‘liq holda tadqiq etish imkonini beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy qarashlardan ko‘rinadiki, diskurs tushunchasi tilshunoslikda bir xil mazmunda talqin qilinmaydi. Harris diskursning strukturaviy tarafiga asos solgan bo‘lsa[2], Schiffrin strukturaviy va funksional yondashuvlarni tizimlashtirdi[3]. Van Dijk diskursning shakl, ma’no va harakat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi va uning kommunikativ tabiatini yanada kengroq yoritdi[4]. Stepanov diskursning konseptual va madaniy jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa[7], Safarov matn va diskurs o‘rtasidagi munosabatni kengroq izohladi[6]. Kibrik va Parshin esa diskursni formal, funksional, situativ va kognitiv jihatlardan o‘rganish imkonini beruvchi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatdilar[5]. Bizning fikrimizcha, diskursni faqat alohida gaplar yoki matnlar yig‘indisi sifatida talqin qilish yetarli

emas. Diskursni uning shakliy tashkil topishi, mazmuniy xususiyatlari va kommunikativ harakati o‘rtasidagi o‘zaro munosabat asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi yondashuvlarga tayangan holda, Harris tomonidan ochib berilgan strukturaviy yo‘nalishni van Dijkning shakl, ma’no va harakat haqidagi qarashlari bilan uyg‘unlashtirib, diskursni shakl, ma’no va kommunikativ harakatning o‘zaro ta’sirida shakllanadigan hodisa sifatida tushunish mumkin. Bunday yondashuvni tanlashimizga sabab shundaki, struktura va kommunikativ harakatni birgalikda ko‘rib chiqish diskursni qiyosiy tahlil qilish uchun izchil nazariy asos yaratadi.

Shu bilan birga, Stepanov[7], Safarov[6], Kibrik va Parshinning[5] qarashlari diskurs tushunchasining doirasini yanada kengaytirib, uning ijtimoiy faoliyat, kontekst va bilim bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, diskursni tadqiq etishda uning formal tuzilishi bilan bir qatorda semantik, kommunikativ, situativ va kognitiv xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.

Shunday qilib, diskurs murakkab va ko‘p qatlamli lingvistik hodisa bo‘lib, uning mohiyatini faqat bitta yondashuv doirasida to‘liq ochib berish qiyin. Uning strukturaviy, funksional, situativ va kognitiv jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish diskursning mazmun-mohiyatini yanada aniqroq yoritish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Harper D. Discourse // Online Etymology Dictionary. – URL: https://www.etymonline.com/word/discourse.
2. Harris Z.S. Discourse Analysis // Language. – 1952. – Vol. 28, No. 1. – P. 1–30.
3. Schiffrin D. Approaches to Discourse. – Oxford: Blackwell, 1994. – P. 20–43.
4. Van Dijk T.A. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. 2nd edition. – London: SAGE Publications, 2011. – P. xv, 4–5.
5. Кибрик А.А., Паршин П.Б. Дискурс // Онлайн Энциклопедия «Кругосвет». – М., 2001. – URL: https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/DISKURS.html.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
7. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности // Язык и наука конца XX века. – М.: РГГУ, 1995. – С. 35–73.